


801.5

B45

N. Bekmirzayev

NOTIQLIK SAN'ATI ASOSLARI



ix


+

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi

N. Bekmirzayev

NOTIQLIK SAN'ATI ASOSLARI

2008 yil 1-qa.
O'quv qo'llanma



Toshkent — “Yangi nashr” — 2008

801.5
B45

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv metodik birlashmalar
faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya etgan*

Mas'ul muharrir: **A. Rafiyev** — filologiya fanlari nomzodi, dosent

Taqrizchilar: **N. Rahmonov** — filologiya fanlari doktori, prof.
M.A. Sharipova — Toshkent madaniyat kolleji
"Til va adabiyot" kafedrası yetakchi o'qituvchisi

Ushbu o'quv qo'llanmada notiqlik tarixi hamda bugungi kun notiqlik
haqida ma'lumot beriladi.

Qo'llanma kasb-hunar kollejlari va Akademik lisiy talabaiarga
mo'ljallangan.



ISBN 978-9943-330-30-6

© "Yangi nashr", 2007-y.

*Ushbu kitobni otam Bekmirzo Murod
o'g'lining va akam Bèrdirayim Bekmirzo
o'g'lining ruhi poklariga bag'ishlayman.*

Muallif

SO'ZBOSHI O'RNIDA

Hozirgi tezkor zamonda mustaqil O'zbekiston yoshlarida yangicha dunyoqarashning shakllanishida notiqlik san'ati sabog'i muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki yangicha dunyoqarash ruhida tarbiyalanayotgan har bir talaba, yangicha dunyoqarashga intilayotgan har bir xodim to'g'ri va savodli yozish, o'qish bilan birga chiroyli gapirish, nutqiy madaniyat va notiqlik san'ati sirlaridan voqif bo'lishlari bugungi va ertangi kunning talabi ekanligini har taraflama his etmog'i shart.

Notiqlik san'ati «Ritorika» nomi bilan qadimiy tarixga ega. Kollejlar talabalarini notiqlik san'ati asoslari bilan tanishtirish maqsadida yaratilgan ushbu o'quv qo'llanmada notiqlik tarixi bilan bog'liq va ifodali o'qish o'rinlari K.Oripov, M. Obidovalarning «Ifodali o'qish» (T., "O'qituvchi", 1994), nutq texnikasi va orfoepiya yoritilgan o'rinlar T.Qudratovning «Nutq madaniyati asoslari» (T., "O'qituvchi", 1993) kitoblaridan foydalanish asosida yoritildi. Mazkur ishimiz bu sohadagi dastlabki qo'llanmalardan bo'lganligi bois, unda bahsli o'rinlar uchrashi mumkin. Bu borada foydali maslahatlar bildirgan hamkasblarga va yuqorida nomlari va kitoblari sanab o'tilgan mualliflarga hamda kitobxonlarga oldindan minnatdorchilik bildirib, keyingi ishlarimizda albatta inobatga olamiz.

Mazkur o'quv qo'llanma bilan T. Mo'minova va M. Sharipovalar tomonidan tuzilgan "Notiqlik san'ati asoslari" o'quv dasturini solishtirganda qisman nomuvofiqlik seziladi. Jumladan, dasturda nazariy qismga 10 soat ajratilgan. Biroq notiqlik haqida

gap borarkan, «Notiqlik san'ati»ning boshqa fanlar bilan aloqasi hamda «Nutq madaniyati» fanidan farqini talaba yoshlarga yetkazish zarur. Shuningdek, «Notiqlik san'ati tarixi», ayniqsa, «Sharq va Markaziy Osiyoda notiqlik» taraqqiyotidan talabalar xabardor bo'lishlarini hisobga olib, o'quv qo'llanmada shu 3 ta katta ma'vzuga 6 soat ajratishni lozim topdik. Bu olti soatning 4 soati «Amaliy mashg'ulot»lar qismidan, 2 soati «Yakka dars»lar qismidan qisqartirish hisobiga erishildi.